



YUKSAK MA'NAVIYATLI AVLOD

Ismatov Islombek

Termiz davlat universiteti Yuridik fakulteti
1-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6307245>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Fevral 2022
Ma'qullandi: 20 - Fevral 2022
Chop etildi: 25 - Fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

*Uyg'onish davri ya'ni
birinchi Renessans,
Muhammad Xorazmiy, Abu
Bakr ar Roziy, Ahmad
Farg'oniy*

O'zbekistonning iste'dodli yoshlari – mamlakat kelajagi! Men bu inshoni prezidentimiz ilgari surayotgan Uchinchi Renessans haqida yozmoqchiman. Chunki bu shunchaki aytilgan gap emas. Uchinchi Renessans biz yoshlar uchun asosiy maqsad va intilish bo'lib xizmat qilishi kerak. Har qanday insonda kelajakka umid va qandaydir intilishi bo'lmasa bu inson nima uchun yashayotganini ham bilmaydi. Lekin biz yoshlar uchun “Besh muhim tashabbus”, “Kitobxonlik” yaqindagina qayta o'z faoliyatini boshlagan “Zakovat” intellektual o'yini, bular men va menga o'xshagan yoshlar uchun bir intilish, bir maqsad yo'lida yoshlarni birlashtiradigan tashabbuslardir. Har bir davrda ham yosh avlod davlat kelajagi bo'lib hisoblangan. Yoshi ulug'lar esa yoshlarga o'rnak, hayotda o'z o'rinlarini topishlariga yordamchi, tog'ri yo'l ko'rsatuvchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolaning mazmuni shundan iboratki bunda hozirgi kunga O'zbeiston hududida hozirgacha amalga oshirilgan islohotlar bo'lib o'tgan voqea va hodisalar. Hozirgi kunda amalga oshirilib kelayotgan ilm yo'lidagi harakatlar haqida umumiy ma'mulot berilgan.

bo'lishadi. Har bir ajdod o'zidan keyin qoladigan avlod yurtga munosib farzand bo'lishini orzu qilishadi. Ayniqsa bizdek qadriyatlarni ulug'lagan yurt uchun bu muqaddas burchdir. Har qanday rivojlangan davlat yosh avlodga albatta investitsiya kiritishga harakat qiladi. Ta'lim-tarbiyali va ma'rifatli yoshlar kelajak poydevorlari bo'la olishadi. Agar har bir davlat yoshlar qalbiga vatanparvarlik ruhini singdira olsa bunday yoshlar vatan ravnaq topishi uchun albatta o'z hissalarini qo'shishadi. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati. Tasavvur qiling yosh oila farzandli bo'ldi. Bu murg'akkina go'dak qanchadan-qancha quvonch olib keladi. Shu go'dakning ota-onasi uning rivojlanishi, kelajakda bir kasb egasi bo'lib, ota-onasi nomiga rahmatlar olib kelishi uchun harakat qilganidek, har bir davlat hamo'z kelajagini, yurtning ravnaq topishini yoshlardan kutadi va yosh kadrlarga doimo ehtiyoj sezadi. Yurtimiz



mustaqillikka erishgan ilk kunlardan yoshlar muammolarini, ularga shart-sharoitlar yaratib berish va ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni davlat siyosati darajasida ko'rib chiqa boshladi. Buning isboti o'laroq 20.11.1991 yilda "O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida" ilk qonun qabul qilingan. Bu qonunlar yildan-yilga takomillashib, kamchiliklar o'rni to'ldirilib hozirgi kunda aniq strategik tamoyillar asosida yoshlar siyosati olib borilmoqda. Ayniqsa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.01.2021 yildagi 23-son qarorida ham "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ning tasdiqlagani hukumatimiz tomonidan yoshlarga qaratilayotgan odilona siyosatning yana bir isboti bo'la oladi. Bunday qaror va farmonlar negizida Davlatimiz rahbari tomonidan kelajak avlodga bo'lgan ulkan ishonchi, e'tibor va g'amxo'rliqi bizdek yoshlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yoshlarga oid davlat siyosati asosida yosh avlodning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularning ezgu orzu-intilishlari, qobiliyati va iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan islohotlar izchil va samarali amalga oshirilmoqda. Xususan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ko'plab loyihalar, yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularning tadbirkorlik va ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha ilgari surilayotgan siyosat mamlakat yoshlarini quvontirmay qolmaydi albatta. Yurtboshimiz tashabbuslari bilan tashkil etilgan besh muhim tashabbus ham, iste'dodli yoshlarning qobiliyatini ro'yobga chiqarish, yosh avlodning jismoniy va ma'naviy yetuk bo'lib ulg'ayishi, sog'lom

turmush tarzini rivojlantirish, harbiy-vatanparvarlik ruhiyati asosida ulg'ayishini hisobga oladigan bo'lsak, bu tashabbus zamon bilan hamnafas ekanligini tushunib yetish qiyin bo'lmaydi. Davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan yoshlarning kelajagi uchun qaratilayotgan siyosatni davom ettirsam ro'yxat anchagina. Men shu yurt farzandi sifatida yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'zim ta'lim olayotgan soha bo'yicha bilimli mutaxassis bo'lib yetishib, yurt ravnaq topishi yo'lida foyda keltirishni o'z oldinga maqsad qilib qo'ygan yoshlar qatoridaman deya hech ikkilanmay ayta olishib bilan faxrlanaman.

Ma'naviyati boy yoshlar – yurt kelajagidir. XXI asr yoshlari o'z bilim va kuchlarini zamonga moslashishga ruhan yaqinroqdir. Ayniqsa yoshlarning g'ayrat-shijoati, ko'plab masalalarga innovatsion yechimlar, yorqin g'oyalar, o'z maqsadlariga erishish qobiliyati jamiyatimiz ajralmas qismiga aylanyapti. Lekin masalaning boshqa tomoniga nazar tashlaydigan bo'lsak, ba'zi-bir yoshlar qiziqqonlik, beparvolik bilan, qimmatli vaqtlarini bekorchi ishlar bilan o'tkazayotganiga guvoh bo'lamiz. Insonda "Men" tushunchasi shakllanishi bilan, uning o'z dunyo qarashlari rivojlanib boradi. Shuning uchun ham har-bir inson bir-biriga o'xshamaydigan dunyo qarashga, fikrga ega bo'ladi. Har birining o'ziga xos xususiyatlari, o'y-hayollari, orzu-niyatlari va intilishlari bor. Bunday yoshlarni rag'batlantirib, to'g'ri yo'l ko'rsatib, shunchaki ularga motivatsiya berilsa, o'sha xayollaridagi orzu-niyatlari, g'oyalarga aylanib kelajakda bu g'oyalar amalga oshishi osonroq bo'ladi. Bunday yoshlarga faqatgina dalda bo'lib, xatolardan saboq chiqarishlariga imkon yaratib,



vatanlari uchun nima qila olishlarim mumkinligini bilib olishlariga sharoit yaratibgina ularni kelajagini porloq qila olish mumkin. Kelajagi porloq bo'lgan yoshlarning, davlati ham porloq bo'ladi. Dunyo tez suratlarda rivojlanib borayotgan bir vaqtda, biz yoshlar ham davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalangan holda o'z bilim va kuchimizni yurt ravnaq topishi yo'lida sarflashimiz kerak. Iqtisodiyotda, ilm-fanda, harbiy sohada, qolaversa jamiyatning har qanday sohasida rivojlanish bu albatta quvonarli holat. Ammo, aytilishi oson lekin izohi juda keng ma'no kasb etadigan bir so'z borki bu siz har qanday boy jamiyat ham vaqti kelib inqirozga yuz tutishi mumkin. Ma'naviyatli inson, ma'naviyati buyuk yurt, ma'naviyati buyuk yurt har tomonlama mukammal komillikka erishadi. Zero bizning shonli tariximizga nazar tashlasak, buyuk ajdodlarimizning ma'naviy, ruhiy kamolotga erishishgani, ular uchun or-nomus, hurmat-izzat, ustoz-shogird, ota-ona, yoru-birodar, hattoki dushmanga ham past nazar bilan qaramaslik, har bir insonning o'zligi borligi, uni hurmat qilish kerakligi haqida ta'kidlashadi. Yaxshi bilamizki yurtimiz harbiy jihatdan anchagina rivojlangan davlatlar ro'yxatida turadi. Buni dunyo mamlakatlari ham bir necha bor tan olishganiga guvoh bo'lganmiz. Ammo jismonan yengilmagan qo'shinni birgina mafkuraviy g'oya bilan yengish mumkinligi sir emas. Tarixdan ma'lumki kuchli davlatlar doimo boshqa xalqlar ustidan hukmronlik qilishga intilib kelishgan. Millatni ma'naviy jihatdan ongini zaharlash, tobe etishga intilishlar ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari, foydalangan holda o'z g'oyalarini targ'ib qilish, ijtimoiy, madaniy,

iqtisodiy aloqalar orqali o'zlarining qabih g'oyalariga mos mafkuraviy muhitni shakllantirishga urinishlarda namoyon bo'lmoqda. Bunday buzuvchi g'oyalarga uchmaslik uchun yurtimiz shonli tarixini o'rganishimizning o'zi yetarli. Chunki bizning ota-bobolarimiz doimo ogoh vahushyor yashashni, Vatan, el-yurt sha'ni, tinchligi uchun hatto jon fido etishni hayotining mazmuni deb bilgan. Farzandlarini ham ana shu ezgu amallar ruhida tarbiyalashga intilgan. Bunday o'zbekona an'analar kun sayin o'zgarib, tinchlik-totuvlikka tahdidlar tobora kuchayayotgan bugungi kunda yanada dolzarblik kasb etmoqda. O'rnak sifatida buyuk Amir Temur bobomizning davlatni ta'lim vatarbiyaga, yoshlar ma'naviyatiga juda katta e'tibor berganliklarining o'zi yetarli ma'nimcha. Ayniqsa dunyoga mashhur tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad Temurning o'zi amal qilgan o'n bir sifatni yuksak baholaydi. Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi. Maktab – bu shunday dargohki, u yerda bilim, tarbiya, berilishi bilan birga, ustozga bo'lgan hurmat, do'stlik tushunchasi paydo bo'ladigan dargoh. Uni tugatib ketayotganingda beg'ubor bolalik davrlariga qayta olmasligingni eslab eting junjikib ketadigan dargoh. Men qisqagina maktab haqida o'zimning fikrlarim bildirib o'tishga harakat qildim. Ammo gap Yangi O'zbekiston haqida, uning kelajagi haqida borar ekan, yurt boshimiz aytganlaridek "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi". Bu shunchaki bir shior emas, yoki shuncha baland-parvoz so'zlar emas. Bu mas'uliyat, kelajak demakdir. O'zbekistonning kelajagi haqida aytilayotgan so'zlar demakdir. Maktab bu yosh avlodning ongiga Vatanparvarlik,



sodiqlik, halollik, ma'naviy yetuklikni targ'ib etuvchi dargoh hisoblanadi. Eng yaxshi sarmoya bu ta'limga tikilgan sarmoyadir. Shuning uchun ham yurtimizning eng katta boyliklari bu maktab yoshidagi bolalardir. Chunki bu yoshdagilar mamlakat kelajagidir, dur-gavharidi. Bu dur-gavharni asrab avaylash bu hayot-mamot masalasi hisoblanadi. Hozir ularga tikilgan sarmoya kelajakda yurt ravnaq topishi uchun xizmat qilishi shak-shubhasizdir. Azal-azaldan yurtimiz doimo ta'lim va tarbiya tamoyili asosida ishlab kelmoqda. Mamlakatimiz rahbari aytganlaridek «Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir», deya ta'kidlaganlari bejizga emas. Haqiqatdan ham, har qanday mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Milliy ta'lim tizimimizni yaratish, uzoq hududlardagi maktablarga moddiy-texnik bazasini, kadrlar salohiyatini mustahkamlash bilan bir qatorda, o'qituvchilarning ham ish haqlarini bosqichma-bosqich oshirib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hattoki konstitutsiyamizda ham 41-moddasida ham *“Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir.”* deb belgilab qo'yilgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida anchagina ko'zga ko'rinadigan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Dunyoning rivojlangan davlatlarining ta'lim tizimlaridan andazalar olinmoqda, xususiy maktablar, prezident maktablari joriy qilinmoqda. Bularning barchasi O'zbekiston kelajagi, ravnaq topishi yo'lida qilinayotgan amallardir. Uchinchi Renessansni O'zbekiston

yoshlarining yangi g'oyalari asosida yaratamiz. Hozirgi kecha-kunduzda prezidentimiz tomonlaridan uchinchi renessansni yaratish uchun olib borilayotgan siyosatlari yurtimizning har bir fuqarosi uchun ayniqsa yoshlar uchun asosiy maqsadga aylanmoqda desam mubolag'a bo'lmasa kerak. Tarixiymanbalarga nazar tashlasak, G'arb mamlakatlari *Uyg'onish davri ya'ni birinchi Renessans*, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri. “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-ma'naviy yuksalish (XIV – XVI asrlar)ga nisbatan qo'llanilgan, uni o'rta asrchilik turg'unligidan yangi davrga o'tish bosqichi deb baholaganlar. Ammo dunyo olimlarining olib borgan tadqiqotlari va dalillar shuni ko'rsatadiki, Osiyo markazida joylashgan ya'ni Movarounnaxr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asrlar oldin (IX – XII asrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergani, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanganligi, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etganligi, aqliy va ijodiy faollik rivojlanganligini ko'rish mumkin. Bu davr dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” yoki “Sharq Uyg'onishi” nomi bilan ham atalib kelinmoqda. Bu davrlarda Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr ar Roziy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, Mahmud Zamahshariy va yana bir qancha buyuk siymolarimiz o'z aql-idroklari va bilimlari bilan butun dunyoni lol qoldira olganlar. Ayniqsa Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Abul Mu'in Nasafiylar kabi, Islom olamida alohida hurmatga szovor bo'lgan buyuklar ona zaminimizdan yetishib chiqqani bundan



tashqari islom olamining yetti piri tug'ilib o'sgan va ijod qilgan avliyolar, buyuk shaxslar yurtida tug'ilib yashayotganimdan va shu yurtning kelajagi uchun befarq bo'lmagan yoshlar safida ekanligimdan faxrlanaman. Yurtimiz uchun ikkinchi Renessansi bu buyuk sarkarda bobomiz asos solgan muhtasham saltanat ya'ni XV asrga to'g'ri keladi. Bu davrda ham qanchadan-qancha buyuk siymolarimiz yetishib chiqishib yurtimiz, sarhadlarimiz dong'ini butun dunyoga taratishgan. Bular, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi mutafakkirlardir. Ajdodlarimiz ikki Renessans davrida dunyoda yetakchi bo'lishgan. Bu albatta mendek har bir yoshga g'urur bag'ishlaydi va ajdodlarga munosib avlod bo'lishga undaydi. Xo'sh buning uchun biz yoshlarga nimalar kerak? Men o'ylaymanki buning uchun hozirgi kunda yurtimizda har qanday sharoitlar mavjud. Faqatgina qunt qilib ilm olish kerak, izlanish kerak, yangilik yaratish kerak va yurtimizni rivojlantirish kerak. Buning uchun nimalar qilishimiz kerak? G'oyalarni amalga oshirish uchun albatta mukammal o'ylangan reja, ruhiy tayyorgarlik, iroda, intilish bo'lishi kerak. Buning uchun bu g'oyalarni amalga oshirish uchun avval qilingan xatolarni qaytarmaslik, ulardan to'g'ri xulosa chiqarish kerak. Rivojlangan davlatlar standartlarini puxta o'rganib chiqish va har bir soha vakili, mutaxassisi o'z sohasining ustasi bo'lishga intilishi zarur. Har bir amalga oshmagan g'oyalarning sabablarini chuqur tahlil qilish, xolisona yondashish zarur. Har bir kamchiligimizdan, xatodan saboq olishimiz va tegishli xulosa chiqarishimiz zarur. Bunday usullarni har bir aholiga yetkazish va o'sib kelayotgan yosh avlodga xatolardan to'g'ri xulosa

chiqarishda ko'nikma hosil qilishimiz kerak. Qachongacha bizning ajdodlar ikki uyg'onish davrida buyuklar qatorida bo'lishgan deb maqtanib yurishimiz kerak? Ularga munosib avlod bo'la olishimizni isbotlashimiz kerak. Bugungi kunda har qanday uyg'onish xalqaro termin bilan aytadigan bo'lsam *smart* inqilobi bo'ladi. Ya'ni aqlli texnologiyalar davri kelyapti. Har qanday sohada hozirgi kunda aqlli texnologiyalarga o'tish uchun ishlab chiqarish sanoatini bosqichma-bosqich modernizatsiya qilish zarur. Har bir jarayonni avtomatlashtirish, robotlashtirish davr talabiga aylanmoqda. Huning uchun ham yurtimizda *million dasturchi* g'oyasi ilgari surilayotgani bu bejizga emas. Bu rivojlanishimiz uchun qo'yilgan qadamning debochasidir. Lekin har qanday rivojlanishda ham mening shaxsiy fikrimcha o'zbekona urf-odatlarimizni unutmagan holda yondashsak bu oqilona bo'ladi deb o'ylayman. Chunki har qanday sohada ham o'z brendimizni yaratsak va shu orqali yurtimizni, milliylikni ko'rsata olsak yana bir bor ikki uyg'onish davrida bekorga rivojlanmaganimizni isbotlagan bo'lardik. Chunki ikki Renessans davriga qarasaq birinchi galda axloq-odob, adolat, ilmga hurmat, bag'rikenglik tamoyillari asosida qurilganligiga guvoh bo'lamiz. Har bir allomamiz faqat va faqat ezgulik yo'lida xizmat qilganligiga guvoh bo'lamiz. Ilm yo'lida har qanday zahmatga ko'nikishgan. Hozirgi kunda ham yurt boshimiz tashabbuslari bilan har bir sohaga e'tibor berilayotgaligi va xox u moddiy bo'lsin xox ma'naviy bo'lsin har qanday ko'mak biz yoshlarga berilayotganligiga guvoh bo'lamiz. Shuning uchun ham Uchinchi Renessansda biz yoshlar dunyo xalqlari oldida ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot



sohalarida yana-da chuqurroq bilimga ega bo'lishimizni talab etadi. Ammo yana bir bor aytamanki bu jarayonda milliylikni yo'qotmasligimiz tarafdoriman. Bunda tilimizni, milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizni nazarda tutyapman. Bunda esa maktablarda va oilada ta'lim-tarbiyamizga yanada jiddiy e'tibor qaratishni bildiradi.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ayta olamanki, bugungi kunda yurtimizda mendek yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, sabr-toqat bilan, aql bilan, ma'rifat bilan va ustozlarning bergan bilimlari bilan prezidentimiz tomonlaridan ilgari surilayotgan Uchinchi Renessansni yaratishda o'zimizning oz bo'lsada hissam qo'sha olsam o'zimni baxtiyor sanagan bo'lardim. Buning uchunkuchli bilimli kadr bo'lib yetishishim zarur. Chunki davlatimiz kelajagi - bu menga o'xshagan aniq maqsadi bor yoshlar qo'lida ekani bor vujudim bilan his eta olaman. Oiladan har bir ota-ona o'z

farzandini shunday ruhda tarbiyalashi zarurki har bir kelajak avlod aniq bir maqsad yo'lida xizmat qilishini bolaligidan his etib ulg'ayishi zarurdir. Bu buyuk maqsad esa jonajon vatanimiz O'zbekistonimizni rivojlantirish yo'lida har bir yosh avlod birlashishi zarurdir. Har bir rivojlangan davlatga eng avvalo yoshlarning bilim olishiga eng katta sarmoya tikkan. Xalqimizning dono naqli bor "Ilm qayda bo'lsa buyuklik bo'lar", "Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqshdir". Xalqimiz donoligi shu naqlardan ham bilinadi. Chunki bunday so'zlar bugungi kunda ham o'z tasdig'ini topmoqda. Ayniqsa IT sohasida, har kunda emas, balki daqiqalar ichida yangi texnologiyalar yaratilmoqda. Zero biz yoshlar o'zimiz qiziqqan kasb egasi bo'lishimiz bilan birga ham aqlan ham jismonan sog'lom bo'lishimiz kerak. Bundan tashqari ma'naviyatimizni asrashimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sadullayev A. Bugungi kun yoshlar: Yangicha dunyoqarash va yondashuvlar. Ya'ni O'zbekistonning iste'doli (Ilmiy ishlar to'plami) 1-bob.17-21 betlar.
2. <https://xs.uz/uz/post/uchinchi-renessans-millij-goya-sifatida>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Uyg%CA%BBonish_davri
4. <https://lex.uz/ru/docs/-140894>
5. <https://lex.uz/docs/-3026246>
6. <https://perepost.uz/oz/news/55849>
7. <https://yuz.uz/uz/news/yoshlarni-har-tomonlama-qollab-quvvatlash-va-ularning-ijtimoiy-faolligini-yanada-oshirishga-oid-qoshimcha-chora-tadbirlar-togrisida>